Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 811.111

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

Ingliz va o’zbek tillarida transport nomlarini hosil qilish usullari.

Baxtiniso Uktam qizi Ergasheva*

24-maktab (Koson tumani)

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ingliz hamda o’zbek tillarida transport vositalari nomlarini hosil qiluvchi so’z yasalish usullari qiyosiy va tipologik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi — ikki til-dagi transport terminologiyasini yasovchi asosiy morfologik va leksik-semantik usullarni aniqlash hamda ularning umumiy va farqli jihatlarini ochib berishdan iborat hisoblanadi. Tadqiqot uchun ingliz va o’zbek tillarining izohli hamda tarmoq lug’atlaridan tanlab olingan 120 dan ortiq transport termini tavsifiy, komponent (morfemik) va qiyosiy-tipologik metodlaridan foydalangan holda tahlil qilindi. Natijalar shuni ko’rsatdiki, ingliz tilida qo’shma so’z yasalishi, qisqartirish va konversiya singari usullar keng doirada qo’llanilsa, o’zbek tilida affiksatsiya, qo’shma so’z yasalishi va o’zlashtirish usullari asosiy o’rin tutadi. Mazkur farq ikki tilning tipologik tabiati (analitik va agglyutinativ) hamda tarixiy til aloqalari bilan izohlanadi. Tadqiqot xulosalari qiyosiy tilshunoslik, terminologiya va tarjima nazariyasi sohalarida amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Kalit so‘zlar

so’z yasalishi, transport terminologiyasi, affiksatsiya, qo’shma so’z, o’zlashtirish, qiyosiy til-shunoslik.

DOI: 10.5281/zenodo.23281484

Kirish

Fan-texnika rivoji tufayli yangi transport vositalarining doimiy paydo bo'lishi ularni nomlovchi til birliklarining ham tez sur'atlarda ko'payishiga sabab bo’lmoqda. Mazkur jarayon tilshunoslikda transport terminologiyasining yasalish qonuniyatlarini keng qamrovda o'rganishni taqozo etadi, chunki har bir yangi termin muayyan tilning ichki so'z yasalish imkoniyatlaridan yoki tashqi ta'sir (o'zlashtirish) yo'lidan foydalangan holda shakllanadi. Ingliz va o'zbek tillari genetik hamda tipologik jihatdan farqli tillar bo'lgani bois, ularda transport nomlarining yasalish usullarini qiyosiy o'rganish har ikki tilning so'z yasalish tizimidagi umumiy va farqli xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Mavzuning tadqiq etilganlik darajasi tahlili shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida so'z yasalish masalalari yetarlicha keng o'rganilgan bo'lib [1], o'zbek tilshunosligida ham so'z yasalishning umumiy nazariy asoslari ishlab chiqilgan [2]. Ammo, ikki tildagi transport terminologiyasini maxsus, qiyosiy-tipologik aspektda tahlil qiluvchi tadqiqotlar hali yetarli emas. Shu sababli mazkur maqolaning maqsadi — ingliz va o'zbek tillarida transport vositalari nomlarini hosil qiluvchi asosiy so'z yasalish usullarini aniqlash hamda ularni qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Vazifalar sifatida quyidagilar belgilandi: har ikki tildan transport atamalari korpusini tuzish; ularni yasalish usullariga qarab tasniflash; ikki tildagi natijalarni miqdoriy yoki sifat jihatdan solishtirish.

Materiallar va usullar

Tadqiqot manbasi sifatida ingliz va o'zbek tillarining izohli hamda tarmoq (texnika) lug'atlaridan, shuningdek ikki tilning faol lug'at boyligidan tanlab olingan 120 dan ortiq transport leksemalari (quruqlik, suv va havo transporti nomlari) xizmat qildi. Tadqiqotda tavsifiy metod, komponent (morfemik) tahlil metodi, qiyosiy-tipologik metod hamda olingan natijalarni umumlashtirish uchun miqdoriy hisoblash metodlari ishlatildi. Har

bir atama dastlab morfemik tarkibiga ko'ra analiz qilindi, so'ngra yasalish usuliga ko'ra tegishli guruhga ajratildi.

Natijalar va muhokama

1. Ingliz tilida transport nomlarini yasash usullari

Tahlil natijalari ingliz tilida transport terminlarini hosil qilishda quyidagi usullar faol qo'llanilishini ifodalaydi:

Affiksatsiya usulida fe'l yoki ot negiziga -er/-or, -man singari qo'shimchalar qo'shish orqali harakatlanuvchi shaxs yoki vositani bildiruvchi so'zlar yasaladi: sailor, carrier, liner. Qo'shma so'z yasalishi ingliz tilida transport terminologiyasining eng ko’p ishlatiladigan usullaridan biri hisoblanadi: motorbike, aircraft, spacecraft, snowmobile singari leksemalar ikki mustaqil negizning qo'shilishidan hosil bo'lgan. Qisqartirish (klipping) usuli yordamida uzun so'zlar ixchamlashtiriladi: bus so'zi lotincha omnibus so'zining qisqargan shakli, cab — cabriolet so'zidan, taxi — taximeter cabriolet iborasidan qisqargan. Konversiya usulida esa so'z turkumi o'zgarishi orqali yangi ma'no hosil yaratiladi: to boat, to ship kabi fe'llar otdan konversiya yo'li bilan yasalgan. Kontaminatsiya (blending) usuli transport terminologiyasida nisbatan kamroq, ammo mahsuldor: aerotrain (aero + train) so'zi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Nihoyat, o'zlashtirish usuli orqali boshqa tillardan (frantsuz, ispan, hind tillaridan) canoe, kayak, sedan, limousine singari so'zlar ingliz tiliga o’zlashgan hisoblanadi.

2. O'zbek tilida transport nomlarini yasash usullari

O'zbek tili agglyutinativ til bo'lgani bois, unda affiksatsiya transport nomlarini yasashning eng ko’p ishlatiladigan usullaridan biri sifatida namoyon bo'ladi: uchoq (uch- fe'l negiziga -oq qo'shimchasi qo'shilishi orqali), haydovchi (hayda- negiziga -uvchi qo'shimchasi qo'shilishi orqali) shular jumlasidandir. Qo'shma so'z yasalishi ham keng ishlatiladi: temir yo'l, yengil mashina, yuk mashinasi, suv osti kemasi, qo'l aravasi singari terminlar ikki mustaqil so'zning birikuvidan hosil bo'lgan. Qisqartirish usuliga misol sifatida mashina so'zini keltirish mumkin, u aslida avtomashina so'zining qisqargan shakli hisoblanadi; metro so'zi ham metropoliten so'zining qisqargan shaklidir.

O'zbek tilida transport terminologiyasining asosiy qismini o'zlashtirilgan so'zlar tashkil etadi: avtomobil, samolyot, poyezd, avtobus, tramvay, taksi, velosiped singari so'zlar rus tili orqali yoki rus tili vositachiligida boshqa Yevropa tillaridan o'zlashgan. Shu bilan birga, kal'ka (izohli tarjima) usuli ham uchraydi — jumladan, temir yo'l termini rus tilidagi ”железная дорога” iborasining so'zma-so'z tarjimasi natijasida yuzaga kelgan. Bundan tashqari, konversiya hamda kontaminatsiya usullari o'zbek transport terminologiyasida amaliy jihatdan deyarli ishlatilmaydi, bu esa ikki tilning tipologik farqidan kelib chiqadi.

Yuqorida keltirilgan erishilgan natijalar quyidagi jadvalda umumlashtirilgan holda taqdim etiladi:

Yasalish usuli	**Ingliz tili misoli**	**O'zbek tili misoli**
Affiksatsiya	sailor (sail + -or), carrier (carry + -er)	uchoq (uch- + -oq), haydovchi (hayda- + -uvchi)
Qo'shma so'z yasalishi	motorbike, aircraft, snowmobile	temir yo'l, yengil mashina, suv osti kemasi
Qisqartirish	bus (< omnibus), cab (< cabriolet), taxi (< taximeter)	mashina (< avtomashina), metro (< metropoliten)
Konversiya	to boat, to ship, a ride (< to ride)	amalda kam uchraydi
Kontaminatsiya (blend)	aerotrain (aero + train)	amalda kam uchraydi
O'zlashtirish	canoe, kayak, sedan, limousine	avtomobil, samolyot, poyezd, avtobus, tramvay, taksi
Kal'ka (izohli tarjima)	railway (< rail + way)	temir yo'l (rus. железная дорога dan kal'ka)

1-jadval. Ingliz va o'zbek tillarida transport nomlarini yasash usullarining qiyosiy ko'rinishi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ingliz tilida qo'shma so'z yasalishi, qisqartirish hamda konversiya singari usullar nisbatan faol qo'llanilsa, o'zbek tilida affiksatsiya va o'zlashtirish muhim o'rin tutadi. Mazkur farq, birinchi navbatda, ikki tilning morfologik tipologiyasi bilan izohlanadi: ingliz tili analitik tilga xos xususiyatlarga ega bo'lib, unda so'z yasalishida konversiya va qisqartirish kabi ”erkin” usullar keng ko’lamda ishlatilgan, o'zbek tili esa agglyutinativ til sifatida affiksal yasalishga moyil hisoblanadi. Ikkinchi omil — tarixiy hamda madaniy aloqalar natijasi bo'lib, o'zbek tilidagi transport terminologiyasining sezilarli qismi rus tili orqali xalqaro leksika hisobidan ancha boyigan.

Xulosa

O'tkazilgan tahlil natijasida ingliz va o'zbek tillarida transport nomlarini hosil qilishning oltita asosiy usuli — affiksatsiya, qo'shma so'z yasalishi, qisqartirish, konversiya, kontaminatsiya hamda o'zlashtirish — aniqlandi. Ingliz tilida bu usullarning barchasi nisbatan qo'llanilsada, o'zbek tilida affiksatsiya, qo'shma so'z yasalishi va o'zlashtirish ustuvorlik qiladi, konversiya va kontaminatsiya esa deyarli ishlatilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Marchand H. The Categories and Types of Present-Day English Word-Formation. — Munich: C.H. Beck, 1969.

[2] Hojiyev A. O’zbek tili so’z yasalishi. — Toshkent: Fan, 1989.

[3] Tixonov A.N. Slovoobrazovatelnyy slovar russkogo yazyka. — Moskva: Russkiy yazyk, 1985.

[4] Bauer L. English Word-Formation. — Cambridge: Cambridge University Press, 1983.

[5] Rahmatullayev Sh. O’zbek tilining izohli frazeologik lug’ati. — Toshkent: O’qituvchi, 1978.

[6] Yusupov O’. Tilshunoslikka kirish. — Toshkent: O’qituvchi, 2010.